



Bunyod YALGASHEV,
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi o'qituvchisi, PhD
E-mail: yalgashev1994@mail.ru

O'zMU dotsenti v.b., PhD B.Tuxtayev taqrizi asosida

SIYOSIY ETIKA FANINI O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosiy etika faning shakllanishi, fanini o'rganishga bo'lgan asosiy metodologik yondashuvlar o'rganilgan. Shuningdek, mazkur fanning siyosiy fanlar tarmog'idagi muhim funksiyalari, maqsad va muammolari tahlili olib borilgan. Ayniqsa, bugungi kunda siyosiy etika fanini o'qitishni yo'lga qo'ygan xalqaro TOP-universitetlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy etika, "e'tiqod etikasi", "mas'uliyat etikasi", "ishontirish etikasi", "muvaffaqiyat etikasi", Garvard, Prinston, Oksford, Chikago universitetlari, London Iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi.

МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭТИКИ

Аннотация

В данной статье изучены формирование политической этики, основные методологические подходы к изучению науки. Также был проведен анализ важных функций, селей и проблем этой науки в области политических наук. В частности, исследованы ведущие международные университеты, которые на сегодняшний день наладили преподавание предмета политическая этика.

Ключевые слова: политическая этика, "этика веры", "этика ответственности", "этика убеждения", "этика успеха", Гарвардский, Принстонский, Оксфордский, Чикагский университеты, Лондонская школа экономики и политических наук.

METHODOLOGY FOR STUDYING POLITICAL ETHICS

Annotation

This article examines the formation of political ethics, the main methodological approaches to the study of science. The important functions, goals, and problems of this science in the field of political sciences were also analyzed. In particular, leading international universities that have established the teaching of political ethics have been studied.

Key words: Political ethics, "faith ethics," "responsibility ethics," "faith ethics," "success ethics," Harvard University, Princeton University, Oxford University, Chicago University, London School of Economics and Political Science.

Kirish. So'nggi yillarda dunyo siyosiy manzarasi global o'zgarishlar natijasida ikki va ko'p tomonlama manfaatlar asosida o'zgarib bormoqda. Har bir siyosiy islohot va o'zgarishlar zahirida siyosiy liderlar, shaxslar hamda ekspertlarning roli, ularning siyosiy bilim va qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvida hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida adolatli yondashish va axloqiy qadriyatlarga tayangan holda siyosiy ishtirokni amalga oshirish zarurdir. Shu bois, jahonda siyosiy fanlar tarmog'ida siyosiy etika (axloq) fanini o'rganish hamda bo'lajak siyosatshunoslarga uning metodologiyasini va amaliy jihatlarni o'qitish keng rivojlanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilganda qadimgi yunon faylasuflaridan Platon va Aristotel kabi olimlarning siyosiy axloqqa katta e'tibor berganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, Platon "davlatdagi donolik, jasorat va adolat - bu davlatni tashkil etuvchi shaxslardagi donolik, jasorat va adolatdir"[1], deb ta'kidlagan. Aristotel esa, jamiyatdagi axloq darajasi va unda o'rnatilgan siyosiy tizim o'rtasidagi munosabatlarni tahlil etadi. Qolaversa, faylasuf fazilatga ega bo'lgan, ya'ni halol, adolatli va umumiy baxt uchun ish tutgan odamgina haqiqiy fuqaro bo'la oladi, deb hisoblagan.

"Siyosiy etika" ilmiy fan sifatida faqat XX asr boshlarida shakllana boshladi. Siyosiy etika tushunchasi siyosatshunoslikning bir tarmog'i sifatida birinchi marta Germaniyada XX asr boshlarida siyosatga sotsiologik va antropologik yondashuvlar vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. M.Veber asarlarida "e'tiqod etikasi" va "mas'uliyat

etikasi" haqida so'z boradi, M.Sheler "ishontirish etikasi" hamda "muvaffaqiyat etikasi" tushunchalarini ilgari suradi.

Zamonaviy G'arb tadqiqotchilari orasida (XX-XXI asrlar) axloqiy va siyosiy muammolarni o'rganish ishlari Y.Xabermas, B.Uilyams, B.Sutor, K.Ballestrem, J.Rols, X.Arendt, J.Maritena, R.Niebuhr, X.Sise, O.Xeff, V.Xesle va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Zamonaviy dunyoda siyosiy axloqning ham fan sifatida, ham amaliy prinsiplar majmui sifatida rivojlanishining bir qancha yo'nalishlari mavjud. Tarixan ilmiy fan sifatida siyosiy axloq fanini o'rganishga quyidagi ikkita asosiy yondashuv ilgari surilgan:

Birinchi yondashuv tarafdorlari ushbu fanni yagona bilimlar majmuasi sifatida taqdim etishdan voz kechib, uni turli xil qarashlar majmui sifatida o'rganish lozim deb hisoblaganlar. Biroq, ushbu yondashuv doirasida axloqiy ta'limotlarning butun xilma-xilligini tizimlashtirishga imkon beradigan muayyan asosiy qoidalar va me'yorlarni ishlab chiqish muammosi paydo bo'ladi.

Ikkinchi yondashuv vakillari esa, aksincha, tegishli nazariyalar tomonidan to'plangan bilimlarni tizimlashtirish, eng mos va to'g'rilarni tanlash, siyosiy axloqning yagona nazariy asosini ishlab chiqish muhimligini ta'kidlab kelishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar siyosatshunos olimlar orasida siyosiy axloqning predmeti, uning metodologiyasi qanday ekanligi bo'yicha ham kelishmovchiliklar mavjud. Bir qator olimlar fan predmetini ishtirokchilarning siyosiy motivlari va maqsadlari, siyosiy faoliyat va institutlar tashkil etishini ta'kidlashsa, boshqalari

esa bevosita siyosat qadriyatlar, shuningdek, siyosiy institutlar va ularning tarkibiy qismlarini birinchi o'ringa qo'yishadi.

“Siyosiy etika” fani ilmiy bilimlar tizimi sifatida bir qator funksiyalarni bajaradi, ulardan eng muhimi:

tanqidiy-tahliliy, chunki siyosatning insoniy jihatini, siyosatning axloqiy va qadriyat jihatlarini, uning axloqiy mazmunini falsafiy darajada tushunishga yordam beradi;

prognostik va tavsiyali, chunki har bir aniq tarixiy vaziyatda siyosiy taraqqiyotning muqobil maqsadlarini shakllantiradi;

nazariy va uslubiy, chunki qonun ijodkorligi, konstitutsiyaviy va demokratik jarayonlarning asosi sifatida yangi siyosiy nazariyalarni shakllantirishga yordam beradi;

tarbiyaviy va tarbiyaviy, chunki jamiyatning siyosiy ongini va siyosiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, kelajakdagi o'zgarishlarning yo'llari va usullari haqidagi ilmiy g'oyalarni tarqatishga yordam beradi.

“Siyosiy etika” fanini o'zlashtirishdan maqsad esa, siyosatning axloqiy tamoyillari va asoslari haqida bilim olish, shuningdek, olingan bilimlarni nazariy hamda va amaliy kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash hisoblanadi.

Siyosiy etika yoki axloqiy-siyosiy falsafa nisbatan yosh fan bo'lib, axloq, tarix hamda siyosat falsafasi va tarixi, sotsiologiya, davlat va huquq nazariyasi, ijtimoiy psixologiya kabi fanlar bilan aloqadordir. Siyosiy etika butun jamiyat taqdiri va odamlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim polemik savollarni o'rganadi. Uni boshqa fanlardan ajratib olish tarixi, yuqorida aytib o'tilganidek, XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Lekin siyosiy axloq 1960-1970 yillarda G'arbning rivojlangan mamlakatlarida mustaqil ahamiyatga ega bo'ldi.

Rossiyada esa, axloq va siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga Ye.Avanesova, K.Kostyuk, B.Kapustin, A.Xuseynov, R.Apresyan, O.Gaman-Golutvina, T.Alekseeva, A.Obolonskiy, K.Gadjiev, A.Titarenkolar o'z hissalarini qo'shganlar.

Dastlab, K.Gadjiev o'zining “Siyosatshunoslik” (1995) va “Siyosiy falsafa” (2000) darsliklariga siyosiy axloq bo'limlarini kiritadi. Uning fikricha, “siyosiy axloq jamiyat va davlatning adolatlari ijtimoiy tuzilishi, rahbarlar hamda fuqarolarning o'zaro huquq va majburiyatlari, inson va fuqaroning asosiy huquqlari kabi fundamental muammolarga ta'sir etuvchi siyosiy faoliyatning me'yoriy asosidir”[2]. Shu bilan birga, siyosatshunos olim Ye.Avanesova ham “siyosiy etika - siyosiy falsafa doirasida shakllangan va axloqning siyosatga va siyosatning axloqqa ta'sirini o'rganadigan ilmiy fan” [3] deb ta'rif berib o'tadi.

Mazkur fikrni qo'llab-quvvatlagan holda tadqiqotchi K.Kostyuk ham siyosat va axloq o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, “Siyosatning axloqiy masalalari qatoriga jamiyatning asosiy qadriyatlari tizimini asoslash, ushbu qadriyat g'oyalariga javob beradigan ijtimoiy tartibni shakllantirish, institutsional munosabatlar masalalari, ijtimoiy guruhlar va harakatlar munosabatlari, jamiyat va shaxs munosabatlari, fuqarolik etikasining asosiy tushunchalari kiradi”[4].

Bundan tashqari, siyosatshunos B.Sutor ham “siyosiy axloq – ijtimoiy va individual fazilatlar birligidir. Ijtimoiy axloq ko'proq qonun va buyruqlarning adolatlari, siyosiy tartib, institutlar to'g'risidagi, individual axloq esa shaxslarni zarur siyosiy, axloqiy fazilatlar haqidagi savollarga javob beradi”[5] deb ta'kidlaydi. Albatta, siyosiy sohada ham siyosiy institutlar etikasi, ham fazilat etikasi bo'lishi kerak. Ular bir-birini doimo qo'llab-quvvatlaydi. Ya'ni, fazilat etikasi inson xatti-harakatlarini ichkaridan, siyosiy institutlar etikasi tashqaridan siyosiy hayotni barqarorlashtiradi.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy siyosiy etika falsafaning muhim bo'limi bo'lib, siyosiy qarorlar, harakatlar va

institutlarning axloqiy tomonlarini o'rganadi. U siyosat va davlat boshqaruvi kontekstida adolat, huquq, mas'uliyat va qadriyatlar masalalari bilan shug'ullanadi. Siyosiy axloq fani axloqiy tamoyillar va qadriyatlarni siyosiy jarayonlar hamda qarorlar qabul qilishda qanday qo'llash mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Qolaversa, zamonaviy siyosiy etika quyidagi ko'plab mavzular va muammolarni qamrab oladi:

1. Adolat va tenglik. Bu masala fanning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, jamiyatda resurslar, imkoniyatlar va huquqlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlash lozim. Chunki bu tushunchalar nazariy prinsplar hisoblanmasdan, balki davlat siyosatini shakllantirishda asosiy amaliy yo'nalish beruvchi mezon ham hisoblanadi.

2. Huquq va erkinliklar. Inson huquqlari, so'z, yig'ilishlar erkinligi, diniy e'tiqod va boshqa asosiy huquqlarni himoya qilish masalalarini ko'rib chiqadi. Demokratik qadriyatlar doirasida har bir shaxsning barcha huquqlari fundamental axloqiy prinsip sifatida qaratiladi. Davlat bu huquq va erkinliklarni ta'minlash bilan bir qatorda, ularni ma'lum bir tartibda cheklab turish ma'suliyatini axloqiy mezonlar qatorida amalga oshirilishi kerak. Masalan, so'z erkinligi zo'ravonlikni targ'ib qilishi yoki davlat siyosiy hayotini turli beqarorliklarga olib kelish vositasiga aylanmasligi lozim.

3. Hukumatning vazifalari. Davlat boshqaruvining axloqiy jihatlarini, uning fuqarolar oldidagi mas'uliyatini va jamiyat farovonligini ta'minlash mas'uliyatini o'rganadi. Siyosiy elita tomonidan qabul qilinayotgan har bir islohot birinchi o'rinda inson hayoti va qadr-qimmatini nuqtai nazaridan baholanadi. Qarorlarning axloqiy oqibatlari tahlil qilinadi.

4. Axloqiy dilemmalar. Siyosiy etakchilar turli axloqiy tamoyillar yoki maqsadlar o'rtasida tanlovga duch keladigan vaziyatlarni tahlil qilinadi. Bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarda, sun'iy intellekt siyosati, tueli ekologik muammolarga qaratilgan qarorlar va axborot xavfsizligi masalalarida siyosiy qarorlar tanlovi amalga oshiriladi. Bu tanlovlar yoki davlatning yoki fuqarolarning ma'lum bir manfaatlarini rad etadi.

5. Korrupsiya va axloq. Siyosatdagi korrupsiya muammolarini, uning oldini olish va unga qarshi kurashish mexanizmlarini axloqiy tamoyillar asosida o'rganadi. Korrupsiya fanning eng katta muammosi sanaladi. Chunki, korrupsiya faqatgina huquqbuzarlik hisoblanmasdan, balki axloqiy buzilish ham sanaldi. Bu davlat manfaatini shaxsiy manfaatlariga almashtirish hisoblanadi.

Zamonaviy siyosiy etika etika va siyosiy falsafaning o'zaro ta'sirini faol o'rganadi, turli siyosiy tizimlarning mafkura va qadriyatlarini tahlil qiladi, xalqaro munosabatlar hamda nizolarning axloqiy jihatlarini qamrab oladi.

Ma'lumki, siyosiy etika fani talabalarga siyosiy qarorlar qabul qilish va xulq-atvoriga rahbarlik qilishi kerak bo'lgan etikaviy tamoyillar va qadriyatlarni chuqur tushunishni ta'minlaydi. Bu talabalarga siyosatdagi murakkab axloqiy dilemmalarni, masalan, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya va shaxsiy huquqlar hamda umumiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni baholash uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, siyosiy etikani o'rganish talabalarga siyosiy etakchilik va boshqaruvda halollik va javobgarlik muhimligini tushunishga yordam beradi. Umuman olganda, siyosiy etika fanidan olingan bilimlar talabalarga siyosiy sohada etikaviy qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan bilimdon va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib etishishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Umuman olganda, “Siyosiy etika” mavzusi juda keng. U nafaqat siyosatdagi shaxsiyat muammolarini, balki siyosiy va ijtimoiy adolat, siyosiy zo'ravonlik, siyosiy zo'ravonlikni ma'naviy asoslash, siyosiy

kurash usuli sifatida zo'ravonlik qilmaslik, xalqaro munosabatlarda adolat, xalqaro munosabatlar etikasi, "adolatli urush" (ma'lum mezonlarga javob beradigan ma'naviy jihatdan ruxsat etilgan urush), "abadiy tinchlik" nazariyalari, axloq va siyosat o'rtasidagi bog'liqlik modellari va boshqa shu kabi masalalarni o'rganadi.

Natijada, bo'lajak siyosatshunos talabalarda adolat, inson huquqlari, mas'uliyat, korrupsiya va hokimiyatni suiiste'mol qilish kabi siyosiy axloqning asosiy tushunchalari hamda tamoyillarini chuqur tushunish, siyosiy va ijtimoiy hodisalarni tanqidiy tahlil qilish, siyosiy qarorlar hamda xatti-harakatlarning axloqiy va axloqiy jihatlarini baholay olish, siyosiy murakkab masalalar bo'yicha konstruktiv mulohazot qilish uchun foydali bo'lgan argumentatsiya va muhokama qilish qobiliyatlarini egallash, davlatning tegishli sohalar bo'yicha kasbiy etika va xulq-atvor standartlari asoslarini ishlab chiqish imkoniyatlari shakllanadi.

Shuningdek, har bir talabaga o'zlarining siyosiy ishtiroki uchun mas'uliyat hissini, demokratik jamiyatdagi fuqarolarning rolini va axloqiy me'yorlarni saqlash muhimligini tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda jahonda ko'plab top universitetlar tomonidan siyosiy etika kursi va dasturlari o'qitilib kelinmoqda. Xususan, siyosiy etika fani bo'yicha reyting jihatdan kuchli universitetlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Harvard universiteti. Unda "Hukumat departamenti" va "Kennedi hukumat maktabi" orqali siyosiy etika bo'yicha kurslarni tashkil etib keladi. Bundan tashqari, universitetda Political ethics (siyosiy etika) modulidan tashqari "Siyosat falsafasi", "Etika va davlat siyosati", "Axloq va siyosat falsafasi" hamda "Davlat va hokimiyat tizimida etika" kabi modullar ham o'qitilib kelinadi.

2. Princeton University (Prinston universiteti). Universitetda "Vudro Vilson nomidagi jamoat va xalqaro aloqalar maktabi" orqali etika va davlat siyosati fani orqali talabalarga siyosiy axloqni tushuntiriladi. Universitetda talabalar uchun alohida "Siyosiy etika" kursi joriy etilgan bo'lib, uning doirasida "The Ethical Policy Maker" (Axloqiy siyosat yuritish) va "Ethics and Public Policy" (Etika va davlat siyosati) modullari o'qitiladi.

3. Oxford universiteti. Oksfordda siyosiy etikaga e'tibor qaratgan holda siyosat nazariyasi bo'yicha magistrlik dasturlariga kuchli e'tibor qaratiladi.

4. Chicago universiteti. Universitet bunda o'ziga tegishli "Falsafa bo'limi" va "Harris davlat siyosati maktabi" orqali siyosiy falsafa hamda etikani talabalariga o'qitib keladi.

5. London School of Economics and Political Science (London Iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi). Maktabda "Hukumat departamenti" va "Falsafa, mantiq va ilmiy uslub bo'limi" mavjud bo'lib, ularda siyosiy etika bo'yicha mukammal kurslar tashkil etiladi[6].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda O'zbekistonda siyosiy etika alohida fan sifatida siyosatshunos talabalarga o'qitilish amaliyoti mavjud bo'lmasa-da, siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi mutaxassisliklari doirasida siyosatdagi axloqiy me'yorlar, adolat hamda mas'uliyat tamoyillari kabi siyosiy etika masalalarini o'rganish mumkin.

Siyosat jamiyat hayotini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydigan zamonaviy dunyoda siyosiy axloqni rivojlantirish tobora dolzarb va ahamiyatli bo'lib boradi. Bu adolatli va mas'uliyatli siyosiy tizimlar rivojlanishi uchun zamin yaratish, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish, jamiyat manfaatlarini ko'zlab qabul qilinadigan siyosiy qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. The Republic of Plato. Translated by B.Jowett. – London: Oxford University press Warehouse, 2013. – P. 442.
2. Gadjeiev K. Politologiya: Uchebnik dlya vysshix uchebnykh zavedeniy. – M.: Universitetskaya kniga, Logos, 2006. – S. 347.
3. Avanesova Ye.G.Politicheskaya etika: uchebno-metodicheskoe posobie dlya studentov-politologov / Ye.G. Avanesova. – Tomsk:izdatelskiy dom Tomskogo gosudarstvennogo universiteta, 2017. – S 3.
4. Kostyuk K.N. Rossiyada siyosiy axloq va siyosiy axloq // Ijtimoiy va gumanitar bilimlar: Ilmiy-ma'rifiy nashr. – M., 1999. – B. 32-42.
5. Sutor B. Politicheskaya etika // Polis. 1993. № 1. – S. 67.
6. Garvard universiteti (<https://www.harvard.edu/>),
7. Prinston universiteti (<https://www.princeton.edu/>),
8. Oxford universiteti (<https://www.ox.ac.uk/>),
9. Chicago universiteti (<https://www.uchicago.edu/>),
10. London Iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi (<https://www.lse.ac.uk/>) rasmiy sayt ma'lumotlaridan olingan.